



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## BANK FAOLIYATINING BARQARORLIGI TA‘MINLASH VA RISKLARNI BOSHQARISH ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ ENSURING THE STABILITY OF BANKING ACTIVITIES AND RISK MANAGEMENT

**Urinboyev Abrorbek Maxmudjonovich**

*“KAPITALBANK” Aktsiyadorlik tijorat Banki*

*Savdo boshqarmasi boshlig‘i*

[Aborbek.urinboev@kapitalbank.uz](mailto:Aborbek.urinboev@kapitalbank.uz)

*Tel.: +998 90 976 00 57*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bank tizimida xavflarni boshqarish mexanizmlari, ularning barqarorlikka ta’siri hamda ilg‘or xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, banklarning risklarni minimallashtirish bo‘yicha samarali yondashuvlari va innovatsion strategiyalari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Bank, strategiya, innovatsiya, moliya, moliyaviy tizim, risk.

В данном тезисе рассматриваются механизмы управления рисками в банковской системе, их влияние на стабильность, а также анализируются передовые международные практики. Также будут рассмотрены эффективные подходы банков по минимизации рисков и инновационные стратегии.

**Ключевые слова:** Банк, стратегия, инновация, финансы, финансовая система, риск.

This thesis analyzes risk management mechanisms in the banking system, their impact on stability, and advanced international practices. It also examines effective approaches and innovative strategies of banks to minimize risks.

**Keywords:** Bank, strategy, innovation, finance, financial system, risk.

Bugungi global moliyaviy muhitda bank tizimining barqarorligini ta’minalash va xavflarni samarali boshqarish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Banklar turli moliyaviy, kredit, likvidlik va operatsion xavflarga duch kelib, ularning ta’sirini minimallashtirish orqali barqaror faoliyat yuritishi lozim. Mamlakat iqtisodiyoti va moliyaviy tizimining uzlusiz ishlashi bevosita bank sektorining mustahkamligiga bog‘liq bo‘lib, bu esa to‘g‘ri risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishni talab etadi. Banklarning risklarni boshqarish strategiyalari kredit portfelining sifatini oshirish, likvidlikni ta’minalash, kapital yetarliligini nazorat qilish hamda tartibga soluvchi me’yorlarga rioya qilish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan kiberxavfsizlik ham bank faoliyatining barqarorligi uchun asosiy omillardan biriga aylanmoqda.






## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Albatta bank faoliyatining barqarorligini ta’minlashda risklarni boshqarish muhim ahamiyatga ega. Banklar turli xil xavflarga duch keladi, jumladan kredit, bozor, likvidlik va operatsion risklar. Ushbu risklarni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini saqlash va iqtisodiyotga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.(1-rasm)



1-rasm

### Banklarning risklarni boshqarish strategiyalari<sup>138</sup>

Kredit riskini boshqarish banklar uchun asosiy vazifalardan biridir. Kredit riski qarz oluvchilarning o‘z majburiyatlarini bajarmaslik ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lib, bu bankning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kredit riskini baholashda banklar qarz oluvchilarning moliyaviy holati, kredit tarixini tahlil qilish va kredit portfelini diversifikatsiya qilish kabi usullardan foydalanadilar.

Bozor riskini boshqarish bozor sharoitlaridagi o‘zgarishlar natijasida bank aktivlari yoki majburiyatlarining qiymati o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bu riskni kamaytirish uchun banklar derivativlar, xedjirlash strategiyalari va bozor tendensiyalarini doimiy monitoring qilish kabi usullardan foydalanadilar.

Likvidlik riskini boshqarish bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillarni nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Banklar likvidlik buferlarini saqlash, likvidlik ko‘rsatkichlarini monitoring qilish va likvidlikni boshqarish siyosatlarini ishlab chiqish orqali ushbu riskni boshqaradilar.

Operatsion riskni boshqarish ichki jarayonlardagi kamchiliklar, inson xatolari, tizim nosozliklari yoki tashqi hodisalar natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni kamaytirishga qaratilgan. Banklar bu riskni boshqarish uchun ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish, xodimlarni o‘qitish va texnologik infratuzilmani yangilash kabi choralardan foydalanadilar.

O‘zbekiston bank sektorida risklarni boshqarish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy baza faol ravishda takomillashtirilmoqda. Bu banklarda ishonchli risklarni boshqarish jarayonlarini ta’minlash uchun Bazel III kabi ilg‘or xalqaro tajribaga moslashtirilgan yo‘riqnomalar va standartlarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Risklarni boshqarish bo‘yicha xalqaro ishchi guruhiга (IORWG) a’zo bo‘lib, bu yetakchi xorijiy markaziy banklar bilan operatsion xatarlarni boshqarish borasidagi ilg‘or

<sup>138</sup> Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tajriba almashish yuzasidan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda xatarlarni boshqarish tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish imkonini beradi.<sup>139</sup>

Banklar risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalardan, jumladan, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalanmoqdalar. Bu yondashuvlar potentsial xavflarni aniqlash va baholashda samaradorlikni oshiradi. Bank faoliyatining barqarorligini ta’minlashda risklarni boshqarish muhim ahamiyatga ega. Risklarni boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini saqlash, yo‘qotishlarni minimallashtirish va daromadliligini oshirishga qaratilgan strategiya va jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Banklar turli xil risklarga duch keladi, jumladan, kredit riski, likvidlik riski, bozor riski va operatsion risklar. Ushbu risklarni samarali boshqarish banklarning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun zarurdir. Shuningdek kredit riski bankning qarz oluvchilar tomonidan qarz majburiyatlarini bajarmaslik ehtimoli bilan bog‘liq. Likvidlik riski bankning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish uchun yetarli likvid aktivlarga ega emasligi holatini ifodalaydi. Bozor riski bozor sharoitlarining o‘zgarishi natijasida bank aktivlari yoki passivlarining qiymati o‘zgarishi bilan bog‘liq. Operatsion risk esa ichki jarayonlar, tizimlar yoki inson xatolari natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni anglatadi. Banklar ushbu risklarni boshqarish uchun turli strategiya va usullardan foydalanadilar, jumladan, risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va nazorat qilish. Shuningdek, banklar kapital yetarliligi, diversifikatsiya, sug‘urta va boshqa himoya vositalarini qo‘llash orqali risklarni kamaytirishga intiladilar.

O‘zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, J.Y. Isakovning "Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish" nomli maqolasida bank aktivlarining tarkibida kreditlar eng yuqori ulushga ega ekanligi va bu holat banklarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir etishi ta’kidlangan. Muallif kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqqan.<sup>140</sup>

S.S. Ahmedovning "Mamlakatimizda tijorat banklari barqarorligi holati tahlili" nomli tadqiqotida tijorat banklarining moliyaviy ko‘rsatkichlari, barqarorlik darajasi va risklarni boshqarish tizimi o‘rganilgan. Muallif banklarning barqarorligini ta’minlashda risklarni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar bergen.<sup>141</sup>

Z.O. Umarova va S.N. Kuzminaning "Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarishning o‘rni" nomli maqolasida tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish

<sup>139</sup> [cbu.uz](http://cbu.uz)

<sup>140</sup> Isakov, J.Y. (2021). *Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish*. Innovatsion ilmiy tadqiqotlar jurnali, 5(2), 45-60.

<sup>141</sup> Ahmedov, S.S. (2020). *Mamlakatimizda tijorat banklari barqarorligi holati tahlili*. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 6(1), 25-38. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4175>






## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



jarayoni yoritilgan. Mualliflar integratsiyalashuv, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar va bankrotlik kabi omillarni tahlil qilib, banklarda risklarni boshqarishning ahamiyatini ko‘rsatgan.<sup>142</sup>

Shuningdek M. Xolmatovning "O‘zbekistonda bank sektoridagi risklarni boshqarishni takomillashtirish" nomli tadqiqotida bank operatsiyalari yoki faoliyati bilan bog‘liq pul yo‘qotishlari yoki xarajatlari natijasida iqtisodiy foydaning kamayishi ehtimoli tushuniladi. Muallif banklarning barqarorligi va uzoq muddatli hayotiyigini ta’minlash uchun risklarni samarali boshqarish zarurligini ta’kidlaydi.<sup>143</sup>



### **2-rasm.**

### **O‘zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarish va barqarorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar<sup>144</sup>**

Risklarni boshqarish tizimi va uning samaradorligi. O‘zbekiston banklarida risklarni boshqarish tizimi yillar davomida rivojlanib bormoqda. 2020-yilda tijorat banklarining umumiyl kredit portfeli 50 trln. so‘mdan oshgan bo‘lsa, shu davrda kreditlarning 10% i yomon kreditlar sifatida qayd etilgan. Bu kreditlar banklarning moliyaviy barqarorligiga tahdid solgan va ularga qarshi risklarni boshqarish strategiyalarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatgan. Biroq, banklar tomonidan kredit risklarini boshqarish uchun joriy etilgan yangi usullar, masalan, risklarni baholashda foydalanilayotgan zamonaviy modellarning (logistik regressiya va kredit skoring tizimlari) samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Yaxshi tashkil etilgan risklarni boshqarish tizimi, masalan, "Batafsil kredit skoring" metodikasi, muammoli kreditlar ulushining kamayishiga olib keldi, 2021-yilda yomon kreditlar ulushi 7% gacha pasaydi.

Risk turlarining o‘zaro ta’siri. Banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadigan risk turlarining o‘zaro ta’sirini o‘rganish juda muhim. Misol uchun, bozor riski va kredit riski bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yaqinda o‘tkazilgan tahlil

<sup>142</sup> Umarova, Z.O. & Kuzmina, S.N. (2021). *Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarishning o‘rni*. Iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 8(4), 51-67. [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_a98ee8fe05594d94b2c14d706e66c81b.pdf](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_a98ee8fe05594d94b2c14d706e66c81b.pdf)

<sup>143</sup> Xolmatov, M. (2021). *O‘zbekistonda bank sektoridagi risklarni boshqarishni takomillashtirish*. Tadqiqotlar.uz, 2(5), 118-131. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/download/2501/2334/4648>

<sup>144</sup> Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



natijalariga ko‘ra, iqtisodiy inqiroz davrida bozor riskining o‘sishi kredit portfelining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 2020-yilning apreldan iyunigacha bo‘lgan davrda so‘mning devalvatsiyasi va aksiyalar narxining tushishi banklarning aktivlarini kamayishiga olib keldi, bu esa kapital yetarliligi va likvidlik muammolarini yaratdi. 2020-yilning 3-choragida banklar o‘z aktivlarining 5% ini qo‘sishma rezerv sifatida ajratdi.

Banklarning likvidlik riskini boshqarish. Likvidlik riski banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan aktivlarga ega bo‘lmaslik holatidir. 2021-yilda O‘zbekiston Markaziy banki tijorat banklariga nisbatan likvidlikning yuqori darajalarini saqlashni talab qilib, banklarga likvidlikni boshqarish uchun zaruriy normativlar qo‘yildi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2021-yilda tijorat banklarining likvidlik koeffitsienti o‘rtacha 0.8 dan yuqori bo‘lgan, bu esa ular tomonidan operatsion majburiyatlarni o‘z vaqtida bajara olishlarini ta’minalashga imkon berdi. Lekin ba’zi banklarda, ayniqsa kichik va o‘rta banklarda, likvidlik riski ba’zan me’yoriy ko‘rsatkichlardan past bo‘lib qolgan.

Kredit riskini boshqarishning samaradorligi. Kredit riskini boshqarish O‘zbekiston tijorat banklari uchun juda muhim ahamiyatga ega. Tahlil qilish natijalariga ko‘ra, kredit riskini boshqarishda 2019-2021-yil davomida eng yuqori ko‘rsatkichga erishilgan. 2019-yilda tijorat banklarining kredit portfeli yomon kreditlar ulushi 15% gacha bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 8% gacha qisqargan. Kredit risklarini boshqarishdagi muvaffaqiyatlar, xususan, yangi kredit skoring tizimining joriy etilishi va risklarni baholashdagi kompyuter dasturlarining qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir.

Moliyaviy barqarorlik va kapital yetarliligi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minalashda kapital yetarliligi asosiy omil sifatida qolmoqda. O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan 2021-yil uchun belgilangan minimal kapital yetarlilik koeffitsienti 12% ni tashkil etdi. 2021-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston banklarining kapital yetarliligi koeffitsienti 14.5% ni tashkil etgan, bu esa banklarning risklarga qarshi kurashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi.<sup>145</sup>

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi jiddiy rivojlanish yo‘lidan o‘tgan, ammo ba’zi sohalarda hali ham takomillashtirishga ehtiyoj bor. Kredit risklarini boshqarishda, ayniqsa, kichik banklarda, samaradorlikni oshirish zarurati mavjud. Likvidlik va bozor risklarini boshqarish uchun samarali nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, yuqori sifatli kredit skoring tizimlarini kengroq joriy etish banklarning barqarorligini ta’minalashda ham muhim.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, risklarni boshqarish va bank faoliyatining barqarorligini ta’minalash bugungi kunda bank tizimlarining samarali ishlashida eng muhim omillardan biridir. O‘zbekiston tijorat banklarining risklarni boshqarish tizimi yillar davomida rivojlanib bormoqda va kredit, bozor, likvidlik va operatsion risklarni boshqarish

<sup>145</sup> O‘zbekiston Markaziy Banki (2020-2021). *O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatiga oid yillik hisobotlar*. O‘zbekiston Markaziy Banki, Tashkent.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'YOYALAR



borasida bir qator ijobjiy natijalarga erishildi. Biroq, ba’zi sohalarda hali ham takomillashtirishga ehtiyoj mavjud.

O‘zbekiston tijorat banklarida kredit riskini boshqarish sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi. Kredit portfelining sifatini yaxshilash uchun yangi skoring tizimlari va risklarni baholashda zamonaviy metodologiyalarni joriy etish samarali bo‘ldi. Shuningdek, kredit portfelidagi muammoli kreditlarning kamayishi, banklarning likvidlik koeffitsientining oshishi va kapital yetarligi bo‘yicha belgilangan normativlarga mos kelishi moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bozor riski va likvidlik riskini boshqarish borasida ba’zi banklarda mavjud muammolarni bartaraf etish zarur. Xususan, kichik va o‘rta banklarda likvidlik riskini boshqarish tizimlarini kuchaytirish, iqtisodiy inqirozlar va bozor o‘zgarishlariga tayyor bo‘lish muhimdir. Shu bilan birga, banklar risklarni boshqarishda yuqori sifatli nazorat mexanizmlarini joriy etish, resurslarni diversifikatsiya qilish va moliyaviy xavf-xatarlarni samarali baholash orqali o‘z barqarorliklarini mustahkamlashlari zarur. Yangi texnologiyalar va strategiyalarni qo‘llash banklarning barqarorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Natijada, O‘zbekiston banklarida risklarni boshqarish tizimi yaxshilanayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonni davom ettirish va yanada samarali boshqaruv usullarini joriy etish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini saqlash va mustahkamlash mumkin bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isakov, J.Y. (2021). Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish. Innovatsion ilmiy tadqiqotlar jurnali, 5(2), 45-60.
2. Ahmedov, S.S. (2020). Mamlakatimizda tijorat banklari barqarorligi holati tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 6(1), 25-38. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4175>
3. Karimov, A. (2019). Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va uni boshqarish. O‘zbekiston iqtisodiyoti, 7(3), 75-92.
4. Umarova, Z.O. & Kuzmina, S.N. (2021). Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarishning o‘rni. Iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 8(4), 51-67. [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_a98ee8fe05594d94b2c14d706e66c81b.pdf](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_a98ee8fe05594d94b2c14d706e66c81b.pdf)
5. Xolmatov, M. (2021). O‘zbekistonda bank sektoridagi risklarni boshqarishni takomillashtirish. Tadqiqotlar.uz, 2(5), 118-131. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/download/2501/2334/4648>
6. [cbu.uz](http://cbu.uz)

